

## ERASMUS+ NICOPA loyihasi doirasida berlin texnika universitetida trening o'tkazildi

Bugungi kunda TIQXMMda professor-o'qituvchilar tomonidan qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha Erasmus+ dasturining "NICOPA: Aniq (koordinatali) qishloq xo'jaligi uchun yangi va innovatsion kurslar" loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha 2018-2021 yillar davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirda loyihaga oid ishlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. NICOPA loyihasi qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda o'quv dasturlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan. Bu o'quv kurslari geografik axborot tizimlari, katta ma'lumotlar bilan ishlash, masofadan zondlash texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'quv kurslarida yangi va innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish va bugungi mehnat bozori hamda jamiyat uchun katta ahamiyat kasb etadigan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning bilim va ko'nikmalari darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Loyiha tashabbuskorlari bu borada bir qancha xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda ilmiy ishlarni amalga oshirishmoqda. Xususan, loyiha doirasida joriy yil 19-30 avgust kunlari [Berlin Texnika Universitetida](#) loyihaning barcha qatnashuvchilari va hamkorlari ishtirokida trening tashkil qilindi va institutimizning professor-o'qituvchilari, jumladan loyiha koordinatori va a'zolari mazkur treningda faol qatnashib kelishdi.

Trening davomida quyidagi yo'nalishlarda ma'ruzalar tinglandi va o'zaro tajriba almashildi:

- GIS Internet, Mobile, and Distributed GIS), (GIS Advanced Methods for Geospatial Analysis);
- Deep learning in Computer vision;
- GIS Data processing and adjustment, Spatial databases and Infrastructures;
- Using of SENTINEL1-2-3 imagery;
- Space Geodetic Techniques;
- Remote sensing and Space Sensor Systems;
- Global Navigation Satellite Systems (NAVSTAR, GLONASS, GALILEO and etc.);
- Soft skills for Engineers, Start-up initiatives for future farmers;
- Management Marketing and Decision Making in PA;
- Big Data for PA;
- Precision Agriculture – characteristics, technologies, economic efficiency, optimal use of resources.



Mazkur kurslar asosida olinadigan nazariy va amaliy bilimdar hozirgi kunda dolzarb muammolarni yechishda, jumladan qishloq xo'jaligi sohasida aqlli tizimlarni yaratish, sun'iy yo'ldoshdan olinadigan ma'lumotlar asosida hududni kompleks monitoring qilish, masofadan zondlash va sensorlar texnologiyasi yordamida yerning hosildorligini aniqlash va oshirish kabi muammolarni yechishga xizmat qilishi mumkin. Treningda barcha ishtirokchilar "Precision Agriculture" yo'nalishi bo'yicha sertifikatlar bilan taqdirlangan.

**Yerdan foydalanish kafedrası tayanch doktoranti Ilhom Abdurahmanov axboroti**